

**BOLALARDA DIQQATNI RIVOJLANTIRISHNING  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

*Absattarova Nawbahar Baxitovna, Bekmanova Ayjamal Tayirovna*

*Qoraqalpog'iston Respublikasi*

*Nukus tumani 11 va Kegeyli tumani 14 – sonli maktab psixologlari*

Bugun shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda har bir pedagog oldida turgan katta muammolardan biri qanday qilib o'quvchilarni e'tiborini o'tilayotgan mashg'ulotga tortish va ularning diqqatni dars jarayoniga to'g'ri va samarali yo'llashdan iborat. Axborot almashuvining tezligi tufayli bugun yoshlar e'tibori har qanday yangilikka o'ch va e'tiborlari tez chalg'uvchan bo'ladi.

Bolaning kichik maktab yoshida boshlang'ich sinflarda o'qish yillariga to'g'ri keladi. O'yin faoliyatidan o'qish faoliyatiga o'tish oldidan bola o'z hayotining eng muhim davriga, ya'ni maktab tomonidan qo'yiladigan turli tuman talablarni bajarishga, boshqacha qilib aytganda, ta'lim olishga ham psixologik, ham jismoniy jihatdan tayyor bo'ladi. Bu boradagi say harakatlar o'qituvchidan juda katta bilim va ko'nikma talab qiladi. Bundan tashqari o'qituvchi o'quvchini har xil o'zgachalik bilan e'tiborliklarini chalg'itmasliklari kerak. Bu o'qituvchi va pedogagik hodimlar olib borishlari muhim vazifalardan biri bo'lsa ba'zi hollarda o'qituvchidan bolalar fikrini nazorat qilib ular bilan turli o'yinlar o'tqazib turishlik ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi va sofliigi, uning qiziquvchanligi va xayolining yorqinligi hammaga ma'lum. Buni uning o'yinida, rasm chizishida, loy va plastilindan narsalar yasash ishlarida, oddiy qurishyasash mashg'ulotlarida yaqqol kuzatish mumkin. Bu paytda bolaning xotirasi ham etarli darajada rivojlangan va kuchli bo'ladi. Bola o'zining qiziqishlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan narsalarni osonlik bilan mustahkam esda olib qolish imkoniyatiga ega bo'ladi. U o'z tajribasidan biladiki, nimanidir yaxshi esda olib qolish uchun uni bir necha martalab qaytarish kerak. Lekin, ma'nosiga tushunib esda olib qolishning samaradorligi biroz pastroq bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijtimoiy foydali mehnatga nisbatan ham qiziqish va ishtiyoq, kattalarga taqlidqilgan holda jismoniy xatti-harakatlar va mashqlar bajarishga nisbatan moyillik kuchli bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, bolada maktab ta'lim-tarbiyasini olish uchun fiziologik imkoniyatlar ham rivojlangan bo'ladi. Demak, bolamiz har jihatdan, ham psixologik, ham fiziologik tomondan maktab ta'lim-tarbiyasini olish imkoniyatiga ega. Shunday ekan, o'quvchilarning keyingi bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirish, ular ongini o'stirish uchun, albatta, psixologik jihatlarini rivojlantirish kerak. Bu o'rinda, bolalarning diqqati, tafakkuri eng muhim psixologik jarayonlardir. Diqqat o'zining rivojlanish bosqichlariga ega. Bola hayotining birinchi oylarida faqat ixtiyorsiz diqqatning mavjudligi kuzatiladi. Bola dastlab kuchli yoki keskin farq qiladigan tashqi qo'zg'atuvchilarni sezadi. Uch oylik bo'lishi bilan bola, hayoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan ob'ektlar bilan ko'proq qiziqqa boshlaydi. 5-7 oyligida bola etarlicha uzoq vaqt davomida qandaydir jismni kuzatishi, ushlab ko'rishi, og'ziga olishi mumkin. Ayniqsa, yorqin va yaltiroq jismlarga bo'lgan qiziqishi yaqqolroq ko'rinadi. Bu ixtiyorsiz diqqatning to'la rivojlanganligidan dalolat beradi.

Ixtiyoriy diqqatning nishonalari, odatda, birinchi yilning oxiri ikkinchi yilning boshlariga kelib, namoyon bo'la boshlaydi. Bolada ixtiyoriy diqqatning shakllanishi va rivojlanishi uni tarbiyalash jarayoni bilan bog'liq. Bolaning atrofidagi odamlar asta-sekin bolani o'zi istaganini emas, balki, uning qilishi zarur bo'lganlarni bajarishga o'rgatib boradilar.

Ixtiyoriy diqqatning rivojlanishida o'yin katta ahamiyatga ega. O'yin jarayonida bola o'z harakatlarini o'yin talablariga muvofiqlashtirishni va ularni qoidalariga mos ravishda yo'naltirishni o'rganadi. Ko'pchilik jismlar va hodisalar bilan tanishib borish, oddiy munosabatlarni farqlash malakasining asta-sekin shakllanishi, ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlashish, ular bilan sayr qilish va o'yinlar o'ynash, boshqa jismlar va o'yinchoqlarni o'ynatish – bularning barchasi bolaning shaxsiy tajribasini boyitadi, shu bilan birga, uning qiziqishlari va diqqatini rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy xususiyati ixtiyoriy diqqatining etarlicha barqaror emasligidan iborat. Bola yot seskantiruvchilarga oson chalg'iydi, uning diqqati o'ta hissiyotlidir. Asta-sekin bolada mashqlar va iroda kuchi yordamida o'z diqqatini boshqara olish layoqati shakllanadi.

Ixtiyoriy diqqatning rivojlanishida maktab alohida ahamiyat kasb etadi. Maktab mashg'ulotlari jarayonida bola intizomga o'rganadi, unda qunt qilish, hulq-atvorini nazorat qilish layoqati shakllanadi. SHuni aytib o'tish lozimki, maktab yoshida ixtiyoriy diqqatning rivojlanishi ham ma'lum bosqichlardan o'tadi. Boshlang'ich sinflarda bola mashg'ulotlarda o'z hulq-atvorini to'liq nazorat qila olmaydi, unda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar tez chalg'iydilar, uzoq vaqt diqqatlarini bir narsaga qarata olmaydilar. Ularda diqqatni irodaviy zo'r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo'lmaydi. Buning asosiy sababi, ulardagi ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Bu yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ko'proq rivojlangan bo'ladi. O'quv materiallarining yaqqolliqi, yorqinligi, jozibadorligi, o'quvchida beixtiyor his-tuyg'ularni uyg'otadi va kuchli irodaviy zo'riqishsiz fan asoslarini egallash imkonini beradi. 1-2-sinf o'quvchilari diqqatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri –uning etarlicha barqaror emasligidir.

Shuning uchun ham ular o'z diqqatlarini uzoq muddat muayyan narsalarga qarata olmaydilar va diqqat ob'ektlari ustida uzoq to'plab tura olmaydilar. O'quv faoliyati esa boladan berilgan o'quv materiallarini esda saqlab qolishni talab etadi. Lekin bu yoshda yuqorida qayd etilganidek ixtiyorsiz xotira shubhasiz, ustunlik qiladi. Bolaning ma'lumotlarni xotirasidaqay darajada saqlab qolishini asosan uning ishga bo'lgan qiziqishi belgilab beradi. O'quv materialini tushunish, eslab qolishning asosiy sharti hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar ta'lim olish munosabati bilan mantiqiy, ya'ni ma'nosini tushunib, esda qoldirish qobiliyati o'sib boradi. Esda qoladigan materialning hajmi kengayib boradi, materialning mazmunini tushunish ham chuqurlashadi va murakkablashadi. Ba'zan boshlang'ich sinf o'quvchilari hatto mazmuni tushunarli bo'lgan materialni ham

ma'nosiga e'tibor bermasdan, mexanik ravishda o'rganib oladilar. Psixolog olim E.G'. G'ozievning fikricha, buning sabablari quyidagilar:

1) kichik maktab yoshidagi bolalarda mexanik xotira boshqa xotira turlariga qaraganda yaxshiroq rivojlangani uchun ham u ma'lumotlarni aynan, o'zgarishsiz eslab qolish imkonini beradi;

2) o'quvchilar o'qituvchi qo'ygan vazifani anglab etmaydilar, natijada uning «to'g'ri tushuntirib ber» degan talabini so'zma-so'z takrorlash deb biladilar;

3) ularda nutq boyligining etishmasligi (ilmiy atamalar, til qonuniyatlarini bilmasligi) materialni ijodiy to'ldirish, unga qo'shimcha qilish imkoniyati yo'qligi uni so'zma-so'z qaytarishni osonlashtiradi;

4) o'quvchilar matnni to'g'ri, samarali usullar bilan eslab qolish yo'llarini bilmaydilar.

Yuqori sinflarda o'smirning ixtiyoriy diqqati yuqori taraqqiyot darajasiga ko'tariladi. O'quvchi etarlicha uzoq vaqt davomida ma'lum faoliyat turi bilan shug'ullana oladi, o'z hulq-atvorini nazorat qiladi. Lekin, shuni ko'zda tutish lozimki, diqqat sifatiga tarbiyalash sharoitlarining o'zi emas, balki, yosh xususiyatlari ham ta'sir ko'rsatadi. 13-15 yoshlarda sodir bo'ladigan fiziologik o'zgarishlar yuqori darajadagi toliqish va ta'sirchanlik bilan birgalikda kechadi, va ba'zi holatlarda diqqatning pasayishiga olib keladi.

SHunday qilib, diqqatning rivojlanishida ikki asosiy bosqichni ajratish mumkin: asosiy xususiyati tashqi tomondan belgilangan diqqatning ustunligidan iborat bo'lgan maktabgacha rivojlanish bosqichi va ichki diqqatning jadal rivojlanishi xususiyatiga ega bo'lgan maktab davri rivojlanishi bosqichlaridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Vıgotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebyonka. – M.: «Smısl», 2004.
2. G'oziev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. – T.: «Noshir», 2010. – 142-b.
3. Davletshin M.G., Do'stmuhamedova Sh.A. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – T., 2009.